

CHEXIYA DAVLATI TARIXI VA USHBU DAVLATNING O'ZBEKISTON BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI HAQIDA

1-kurs magistranti: Usmonova Nargiza.

Ilmiy rahbar: dots. Hoshimova M.M.

Chex yerlari Prjemislovichlar tomonidan birlashtirilgach, ya'ni IX asr oxirlaridan ma'lum. Kozima Prajskiyning «Chex xronikasi»dan shuni o'qib chiqish mumkinki: «894-yil yozida xristian dinining birinchi knyazi Borjivoy cho'qintiriladi». Bu dalilning xaqqoniyligi munozaralar keltirib chiqaradi. Chexiya qirolligi (Bogemiya) ahamiyatli kuchga ega edi, biroq diniy ziddiyatlar (XV asrdagi guschilar urushi va XVII asrdagi o'ttiz yillik urush) uni tushkunlik holatiga solib qo'yadi. Keyinroq u Gabsburglar ta'siri ostiga tushib qoladi va Avstriya-Vengriyaning bir qismiga aylanib, Bogemiya, Moraviya va Sileziya podsholik yerlariga aylanadi.

Birinchi jaxon urushidan so'ng 1918-yilda Chexiya, Slovakiya va Karpatosti Rus davlatlari birlashadi va mustakil Chexoslovakiya Respublikasini tashkil etishadi. 1939-yilda Chexiya davlati Germaniya tomonidan okkupasiya qilinadi (Bogemiya va Moraviya Protektorati deb atala boshlanadi).

Ikkinchi jaxon urushidan so'ng Chexoslovakiya sovet ta'siri ostiga tushib qoladi va socialistik mamlakatga (SSSR) aylanadi.

1989-yilda Chexoslovakiya Baxmal inkilobi natijasida socialistik rivojlanish yo'lidan voz kechadi. 1993-yil 1-yanvarda mamlakat tinch holatda ikkiga bo'linib, mustaqil Chexiya va Slovakiya davlatlari tashkil topadi.

1999-yilda Chexiya Nato tarkibiga va 2004-yilda Yevropa ittifoqiga qo'shiladi. 2009 yil 1 yanvardan Chexiya 6 oy muddat Yevropa ittifoki Kengashining rais Davlatiga aylanadi (2009-yil 1-iyungacha).

Shu o'rinda Chexiya Respublikasi tarixiga chuqurroq nazar tashlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chexiya hududida odam paleolit davridan boshlab yashaydi. Miloddan avvalgi 400 yillarda bu yerda keltlar, miloddan avvalgi I asrda kelt qabilalarining boy guruhi yashagan (Chexiyaning lotincha Boxemia, nemischa Boxmen nomi xam shundan). Birinchi ming yillik o'rtalarida Chexiyada slavyan qabilalari ko'pchilikni tashkil etdi. VII-asrda Chexiya hududi Samo davlati, IX-X asr boshlarida Buyuk Moraviya davlati tarkibiga kirdi. X asrda paydo bo'lgan Praga knyazligi ilk chex davlatining o'zagi bo'lib, 1198 yildan qirollikka aylandi. 1310-1437 yillarda chex yerlari Lyuksemburglar sulolasi mulki tarkibida bo'ldi. XV asrning birinchi yarmida Chexiyada kuchli ijtimoiy inqilobiy, milliy ozodlik harakatlari bo'lib o'tdi.

1526-yilda Chexiya Gabsburglar imperiyasi tarkibiga muxtoriyat huquqi bilan qo'shib olindi. 1618-1620-yillarda chex qo'zg'olonining mag'lubiyatidan so'ng uning provinsiyasiga aylandi. XVIII asr oxiri XIX asr birinchi yarmida chex tili, milliy madaniyatini saqlash va rivojlantirish uchun milliy harakat avj oldi.

XIX asrning 30-40-yillarida u siyosiy tus ola boshladi. 1848-yil Pragadagi Svyatovatslav yig'ini Gabsburglar imperiyasida 1848-1849-yillar inqilobi boshlanishiga olib keldi.

1867-yil Chexiya Avstriya Vengriyaning Avstriya qismi tarkibiga kirdi. 1878-yil Chexiyada Chexoslavyan sosial demokratik ishchi partiyasi tuzildi. 1918-yil Avstriya Vengriya parchalangach, Chexiya Slovakiya bilan birlashib mustaqil Chexoslovakiya Respublikasini tashkil etdilar. 1938-yil oktyabr boshlarida Germaniya Chexiyaning Sudet viloyati deb nomlangan xududini, 1939-yil martda barcha chex yerlarini bosib oldi va uni «Bogemiya va Moraviya protektorati» deb e'lon qildi. Chexiya halqining 1945-yil maydagi ko'zg'oloni natijasida 1945-yil 9-mayda Praga shahri ozod qilindi. Chexiya yerlari va Slovakiya Chexoslovakiya Respublikasi doirasida qayta birlashtirildi.

Chexiya 1948-yil 9-maydan Chexoslovakiya Halk Demokratik Respublikasi, 1960-yil 11-iyuldan Chexoslovakiya Sosialistik Respublikasi, 1990-yil 29-martdan Chexoslovakiya Federativ Respublikasi, 1990-yil 20-apreldan 1992-yil 31-dekabrgacha Chexiya va Slovakiya Federativ Respublikasi tarkibida bo'ldi.

Chexiya va Slovakiya Federasiyasining 1992-yil 25-noyabrdagi Chexiya va Slovakiya Federasiyasining tugatilishi to'g'risidagi federal qonuniga binoan Chexiya 1993-yil 1-yanvardan suveren davlatga aylandi. Chexiya 1993 yildan Birlashgan millatlar tashkiloti a'zosi. Milliy bayrami 28 oktyabr. Mustaqil Chexoslovakiya tashkil bo'lgan kun 1918-yil. Chexiya Respublikasi bugungi kunda Markaziy Yevropadagi davlat. Maydoni 78,9 ming km². Poytaxti - Praga shahri. Ma'muriy jihatdan 14 ta viloyatga bo'linadi.

Chexiya - suveren, demokratik davlat. Amaldagi konstitusiyasi 1992-yil 16-dekabrda qabul qilingan va 1993-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Davlat boshlig'i - prezident (2013-yildan Milosh Zeman), u parlamentning ikkala palatasi tomonidan 5 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi organi – deputatlar palatasi va Senatdan iborat parlament. Ijrochi xokimiyat organi Prezident tomonidan tayinlanadigan hukumat.

Chexiya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi diplomatik alokalar 1993-yil 1-yanvarda o'rnatilgan. 2004-yil oktyabr oyida Chexiya Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi ochilishi bilan ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Chexiya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992-yil 24-yanvarda tan oldi. Ikkala davlat o'rtasidagi siyosiy muloqot asoslari 1997-yil 14-16-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Chexiya Respublikasiga rasmiy tashrifi chog'idan boshlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov taklifiga binoan Chexiya Respublikasi Prezidenti Vatslav Klaus 2004-yil 12-15-sentabrda rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi.

Chexiya Respublikasi Sharqiy Yevropa mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib keng ko'lamli siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirgan, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha o'z mintakasida yetakchi o'rin egallab turgan davlatdir. O'zbekistonning ushbu mamlakat bilan munosabatlari do'stlik va hamkorlik, o'zaro ishonch va hurmat tamoyillariga asoslanadi.

Mamlakatlarimiz ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdan birdek manfaatdor, hamkorlikni kengaytirish borasida muntazam muloqot yo'lga qo'yilgan. Xalqaro muammolarga nisbatan qarashlarimiz xam mushtarak. Prezident Vatslav Klausning tashrifi - Chexiya davlat rahbarining O'zbekistonga ilk rasmiy tashrifi. 13-sentabr kuni Do'rmon qarorgohida rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Islom Karimov va Vatslav Klaus shoxsupaga ko'tarildilar. Ikki mamlakatning davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar. Yakkama-yakka suxbat chog'ida Prezidentlar o'zaro munosabatlarning bugungi ahvolini tahlil etib, istiqbollarini muxokama qildilar, tomonlarni qiziqtirgan xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashdilar.

Ushbu tashrif ikki tomonlama aloqalar tarixidagi muhim voqea ekanligi qayd etildi. Oliy darajadagi O'zbekiston-Chexiya muloqoti o'zaro xamkorlikni yangi boskichga ko'tarishi ta'kidlandi. Prezident Islom Karimov qayd etganidek, O'zbekiston uchun Chexiya bilan siyosiy muloqot, iqtisodiy xamkorlik va boshqa sohalaridagi aloqalar muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Chexiyani ishonchli sherik deb biladi va uning mintaqamizdagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun bu davlatni xar tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Chexiya xam O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi o'zining ishonchli hamkori deb hisoblaydi.

O'zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo umumiy bozorini barpo etish tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi. Chexiya O'zbekistonning mintaqada integrasiyani rivojlantirish, xavfsizlikni ta'minlash borasidagi harakatlarini yuqori baholaydi. Mamlakatlarimiz savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning faoliyatiga, terrorchilik va diniy ekstremizmga, noqonuniy muxojirlik va qurol-yarog' savdosiga, uyushgan jinoyatchilik va narkobiznesga qarshi kurashda hamkorlikni yanada ko'chaytirish masalalariga alohida e'tibor beradi. Prezidentlarning muloqoti ikki mamlakat rasmiy delegasiyalarining kengaytirilgan tartibdagi muzokarasida davom etdi. Muzokarada savdo-iqtisodiy xamkorlikni yanada rivojlantirish va ijtimoiy sohadagi aloqalarni faollashtirishga oid masalalar asosiy o'rin egalladi.

2004-yilning 1-mayidan Chexiya Yevropa Ittifoqiga qo'shilganidan keyin 1993 yilda imzolangan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy xamkorlik to'g'risidagi xukumatlararo bitim tuzish kuchini yo'qotdi. Shu munosabat bilan tomonlar iqtisodiyot, sanoat va ilmiy-texnikaviy sohalarida hamkorlik bo'yicha yangi bitimni ishlab chiqdi va u 2004-yil 28-iyun kuni imzolandi.

Bu hujjatga muvofiq ikki mamlakat o'rtasida eng ko'p qulaylik yaratish tartibi joriy qilingan. Iqtisodiy munosabatlarimiz Prezident Islom Karimovning 1997-yilning yanvarida Chexiyaga rasmiy tashrifi chog'ida imzolangan sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqaruvchi muassasalar va milliy banklarning hamkorligi to'g'risidagi qator muxim hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda chexiyalik ishbilarmonlar sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 30 ta korxona mavjud. Ular xalq istemoli mollari, oziq-ovqat maxsulotlari, qurilish materiallari, dori-darmon ishlab chiqarish, qishlok xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalarida faoliyat ko'rsatmokda. Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida Chexiyaning «Yeriel Korporeshn», «Marts TsZ», «Tomas Praga», «ChKD Nove Energo», «Ayveks-ChR», «Yason Trevel», «Yantsen» kabi kompaniyalari ro'yxatdano'tgan. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Chexiyaning «Cheshka Sporitelna», «Investichni a postovni bank», «Komerchni bank», «Chek eksport bank» kabi baknlari bilan aloqa o'rnatgan. «Asaka» banki «Obxodni bank» bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekiston va Chexiya savdo-sanoat palatalari o'rtasidagi xamkorlik ishbilarmonlar kengroq faoliyat ko'rsatishiga xizmat qilmoqda. Bulardan tashqari sayyoxlik, sug'urta, farmasevtika, neft-gaz, kimyo sanoati korxonalari yaqindan xamkorlik qilyapti.

O'zbekistonga Chexiyaning tramvay va trolleybuslari keltirilmoqda. «V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviasya ishlab chiqarish birlashmasi» davlat aksiyadorlik jamiyati bilan

Chexiya mudofaa vazirligi o'rtasida harbiy-transport samolyotlarini yetkazib berish borasida muzokara olib borilmoqda.

O'zbekistonda Chexiya mahsulotlariga, Chexiyada O'zbekiston mahsulotlariga talab va extiyoj bor. Ikki mamlakat iqtisodiyotida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan tarmoqlar deyarli yo'q, aksincha, ko'pgina sohalarda ular bir-birini to'ldira oladi. Prezident Islom Karimovning ta'kidlashicha, O'zbekiston va Chexiya ishbilarmonlarini bir-biriga tanishtirishning xojati yo'q. Mamlakatimizda «Tatra», «Shkoda» kabi kompaniyalarni yaxshi tanishadi. Ikki tomonlama manfaatli sohalarda hamkorlikni kuchaytirish uchun yanada kengroq qulaylik yaratish kerak. O'zbekiston bu yo'nalishda hamkorlikka tayyor. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatidagi hamkorlik istiqbolli.

Ijtimoiy-madaniy hamkorlik doirasida O'zbekistonning yosh iste'dodlari 1994 yildan buyon Chexiyaning Liditsa shahrida o'tkazilgan ananaviy Jahon bolalar ijodiyoti ko'rgazmasida qatnashib keladi.

Chexiya hukumati O'zbekistonlik talaba va tadqiqotchilar uchun xar yili grantlar ajratmoqda. Fanlar akademiyalari, Qishlok va suv xo'jaligi, Halq ta'limi, Sog'liqni saqlash vazirliklarining ilmiy muassasalari o'rtasida materialshunoslik, tibbiyot, mikroelektronika, yadro fizikasi, mashinasozlik, farmakologiya kabi sohalarda yaqin hamkorlik qaror topgan.

Chexiya Prezidenti Vatslav Klaus O'zbekiston Bosh vaziri Shavkat Mirziyoyev hamrohligida «Interkontinental» mexmonxonasiga tashrif buyurdi. Oliy martabali mexmon ikki mamlakat ishbilarmonlarining anjumanida nutq so'zlab, ularni xamkorlikni yanada kengaytirishga chaqirdi. Vatslav Klaus Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining talabalari, professor va o'kituvchilari bilan uchrashdi. Mexmon fan-ta'lim sohasidagi xamkorlik umumiy xamkorlikda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etdi. Chexiya Prezidentiga Milliy universitetning Faxriy doktori unvoni berildi. Oliy martabali mexmon Xotira va qadrlash maydonidagi «Motamsaro ona» haykali poyiga gulchambar qo'ydi. Oliy martabali mehmon O'zbekiston tarixi davlat muzeyini ziyorat qildi. Uzoq o'tmishimizga, madaniy-manaviy merosimiz nihoyatda boy va qadimiy ekaniga aloxida etibor qaratdi. Yaqin tariximiz mustaqillikning ko'lga kiritilishi, istiqlol yillarida amalga oshirilgan o'zgarishlar bilan tanishar ekan, mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va demokratik isloxlarga yuksak baho berdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Uz.wikipedia. org. sayti
2. Ўзбекистон Республикаси шартномалари тўплами. 2004 йил 2-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2005 йил 34-36 сон. 264-модда.
4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2006 йил 12-13 сон. 105-модда.

SamDU tarix fakulteti “Umumiy tarix” kafedrasi professor-o'qituvchilari, magistrant va iqtidorli talabalarning 2013-yildagi ilmiy tadqiqot ishlari yakunlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. Samarqand 2014. 68-73.

